

**YUQORI TABAQA VAKILLARINING PARALINGVISTIK VOSITALARNI
QO‘LLASHDAGI LEKSIK-SEMANTIK MA‘NO XUSUSIYATLARI
(PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANI ASOSIDA)**

**ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ПРИ
ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ
ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ ВЫСШЕГО СОСЛОВИЯ
(ПО РОМАНУ ПИРИМКУЛА КАДИРОВА “YULDUZLI TUNLAR”)**

**FEATURES OF LEXICAL-SEMANTIC MEANING IN THE USE OF
PARALINGUISTIC TOOLS BY REPRESENTATIVES OF THE UPPER CLASS
(BASED ON THE NOVEL “YULDUZLI TUNLAR” BY PIRIMKUL
KADYROV)**

Pirnazarova Nigina Majid qizi

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

niginapirnazarova523@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida qo‘llangan yuqori tabaqa vakillari, ya‘ni saroy ahli vakillarining paralingvistik vositalarni qo‘llashdagi leksik-semantik xususiyatlari haqida ma‘lumot berilgan. Xususan, erkaklar va ayollar nutqining leksik-semantik xususiyatlari, erkaklar va ayollar nutqidagi paralingvistik vositalarning ma‘no nozikliklari, qahramonlarning o‘ziga xos xarakterini verbal va noverbal birliklar orqali ifodalash usullariga e‘tibor qaratiladi. Qahramonlar nutqidagi paralingvistik vositalarning o‘ziga xos uslub bilan bayon etilishi romandan olingan.*

Tayanch so‘zlar: *paralingvistika, gender lingvistikasi, noverbal vositalar, mentalitet tushunchasi, ohang, mimika, imo-ishora, tana harakatlari.*

Аннотация: *В этой статье рассмотрен роман “Yulduzli tunlar” сведения о лексико-семантических особенностях использования паралингвистических средств представителями высшего сословия то есть придворными, использовавшими этот стиль. В частности, внимание уделяется лексико-семантическим особенностям мужской и женской речи, тонкостям значения паралингвистических средств в мужской и женской речи, способам выражения своеобразия персонажей через вербальные и невербальные единицы. Описание паралингвистических средств в речи героев в уникальном стиле взято из романа.*

Ключевые слова: *паралингвистика, гендерная лингвистика, невербальные средства, менталитет, mimika, жесты, телодвижения.*

Annotation: *In this article, the novel “Yulduzli tunlar” by Pirimkul Kadyrov information about the lexical-semantic features of the use of paralinguistic tools by the representatives of the upper class, that is, the members of the palace. In particular, attention is paid to the lexical-semantic features of men’s and women’s speech, subtleties of*

meaning of paralinguistic tools in men's and women's speech, ways of expressing the characters' unique character through verbal and non-verbal units. The description of paralinguistic tools in the speech of the characters in a unique style is taken from the novel.

Keywords: *paralinguistics, gender linguistics, nonverbal verbs, mentality, concept, mimicry, gestures, body movements.*

KIRISH

Paralingvistika – noverbal birliklar, ya’ni intonatsiya, ohang, ustsegment birliklar, mimika, imo-ishora, tana harakatlarining xususiyatlarini o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Noverbal vositalar nutq jarayonining uzviy va ajralmas bo‘lagi sifatida, muhim qismi sifatida milliy o‘ziga xoslikni aks ettiradi, urf-odatlar va odob harakatlari, ayniqsa, jins munosabati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi, nutq jarayonida qo‘llanilib, mazmunni yanada yorqin ifodalashga, ochib berishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani boy tariximizni, buyuk ajdodlarimizni, milliy mentalitetimizni yaqqol gavdalandirgan asarlardan biridir. Adib asarlari, ayni paytda, o‘zining yuksak saviyasi, ta’sir yuki, ishontirish kuchi bilan kishi chuqur o‘yga toldiradi. Yozuvchi tasvirlayotgan barcha hodisalar, aynan sodir bo‘lgan voqea, real o‘tmishning bir parchasi, qahramonlari bilan gavdalandiriladi.

Nutqiy muloqot jarayonida ifodalanishiga ko‘ra nolisoniy birliklar ayollar va erkaklar nutqida farqlanishi hammaga ma’lum. Nutqiy jarayonda ularning turlicha ko‘rinishda aks etishi, erkaklar va ayollarning tana tuzilishi, fiziologik o‘ziga xoslik, erkak va ayollar nutqining yuzaga chiqishida ularning psixologik xususiyati, yoshi, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va albatta, oilaviy muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda aynan jins bilan bog‘liq lisoniy hodisalarni farqlash va tadqiq qilish maqsadida “gender tilshunosligi” istilohi keng qo‘llaniladi. “Gender” tushunchasi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “gender”- “jins” degan ma’noni anglatadi. Jins tushunchasi fiziologik voqelik asosi bo‘lgan ijtimoiy qurilma sifatida baholaydi. [2, 11] Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ham ana shunday maskulinlik va femininlik qarashlari yaqqol aks etgan. Ya’ni ayollarga va erkaklarga xos noverbal vositalar deyarli har bir qismda uchraydi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakil va vakilalari tomonidan qo‘llanilgan noverbal birliklar qahramonlar holatini, davr va zamon ruhini gavdalandirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayollar va erkaklar nutqiy jihatlarini nemis tilshunosi Joul Oates “Ayol, erkak va til” nomli asarida izohlab beradi. [3, 121] Albatta, erkaklar nutqida bosqlik, vazminlik, ayollar nutqida esa noliq, hasrat yetakchilik qiladi, biroq bunday deb keskin xulosa chiqarish ham bitoz nisbiy sanaladi. Bunday vaqtlarda shaxsning ijtimoiy holatini ham inobatga olish kerak bo‘ladi. Adib asarida ham aynan mana shunday jihatlariga urg‘u berilgan. –Hamma yog‘iydan qochganda biz ajdohoning komiga yaqin kelib qolganimiz g‘alati bo‘ldi, - deb mulla Fazliddin jiyaniga ma’yus ko‘zlari bilan qaradi. [6, 9] Birgina mana shu jummalarda ham ko‘z qarashlari orqali qahramonlarning ichki dunyosidagi voqealar silsilasi qanchalar yorqin ifodalangan. Ko‘z

qarashlari orqali yozuvchi qahramonning ruhiy holati va ijtimoiy ahvolni ochib berishga harakat qilgan. Erkaklarning yuz a‘zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplar ham o‘ziga xosligi bilan ayollar gender stereotiplaridan farq qiladi. – To‘xta nobakor! – deb mulla Fazliddin bittasining qarshisidan chiqqan edi, yuziga qora niqob tutgan ayiqday zo‘r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatadi-da, ko‘chaga otiladi.[6, 11] Ayni shu vaziyatda ham erkaklarga xos stereotipning o‘ziga xosligini ko‘rishimiz mumkin. Kuchli yelka harakatlari erkaklar stereotipining ustunligi, tana harakatlari, tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu holat esa nutqiy jarayonni yanada yorqinroq ochib berishga yordam beradi. “ Yoshi yigirma beshlardan oshgan bo‘lsa ham, yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko‘sanamo Ahmad Tanbal og‘zini me‘morning qulog‘iga yaqinlashtirib shivirladi: - Malikamizning surati kerak menga! [6, 13] Bu ifodada esa Ahmad Tanbalning qabih niyati, uning nutqida, quloqqa shivirlashida tasvirlab berilgan. Shivirlash, asosan, ayollar paralingvistikasiga xos jarayon bo‘lsa ham, ayni shu vaziyatni ifodalash uchun erkaklar nutqida qo‘llanilgan. Bu esa yozuvchining mahoratini yana bir bor isbotlab bergan.

Ta’kidlash joizki, gender lingvistikasi hozirgi o‘zbek tilshunosligida tadqiqot markaziga aylangan sohlardan biri hisoblanadi. 21-asrda ilm-fanga kirib kelgan gender tadqiqotlarda ikki jinsning o‘ziga xos va mushtarak tomonlari tadqiqi turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya hamda tilshunoslik kabi fanlarning azaliy tarmoqlari negizida yangi bir yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Quyidagi parchada ham aynan gender lingvistikasiga xos elementlar ko‘zga tashlanadi. ” Xonzoda begim oyisining yuziga ma’noli ko‘z tashlab: “Ayb bizning otamizdami? “ demoqchi bo‘ldi. Podshoh ota qizi tenglik Qorako‘z begimning xobgohida, qonli urush hammani besaranjom qilib turgan shunday tahlkali tunda uxlab yotishi unga behad xunuk tuyildi. Hozir otasi kelsa, Xonzoda begim uning yuziga qaray olmasligini sezdi-yu, oyisidan iltimos qildi: - Ruxsat bering, men ketay...[6, 22] Ma’noli ko‘z tashlash ayollarga xos paralingvistik vositalarning eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. Birgina ko‘z tashlash orqali butun boshli qahramon holati gavdalantiriladi. Qolaversa, mentalitet xususiyatlari, o‘zbekona ruh ham bu o‘rinda yetakchilik qiladi. Aynan ma’noli ko‘z tashlashiga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, bu holat aynan ayollarga xos noverbal vositadir. Qizning ota-onasiga bo‘lgan hurmati ham g‘oyat nafislik bilan ochiqqlangan, bu yerda o‘zbekona mentalitet va o‘zbek ayollariga xos tarbiya, ularning ota-onalariga bo‘lgan hurmati, o‘zbekona tarbiya ham o‘z isbotini topgan. Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tafovut yaqqol ko‘zga tashlanib kelinmoqda. Bu tafovutlar dastavval, ularning bajarayotgan ishlarida, yumushlarida, keyinchalik esa kishilik jamiyatining rivojlanishi natijasida, ularning xulq-atvorida, kiyinish uslubida, shuningdek, so‘zlashida ham ajrala boshlagan. U to‘satdan egilib, Mirzoning yuzidan, ko‘zlaridan vidolashgan kabi o‘pa boshladi. Umarshayx mirzoning kipriklari titradi. U ko‘zini ochib, tepasida turgan Qorako‘z begimga karaxt yuzi bilan bir lahza tikilib turdi. [6, 23] Kipriklar titrashi bu g‘oyat chiroyli tasvir usuli bo‘lgan. Ya’ni qahramonning ichki kechinmalari, nozik his-tuyg‘ularini ochishga xizmat qilgan. Ayni damda, bunga erishgan ham. Bu vosita orqali esa yozuvchi ijtimoiy muhitni yaratib bergan.

“ Umarshayx mirzo bugungi rajalari va urush tashvishlarini eslab, qovog‘ini soldi-da, indamay o‘rnidan turdi”. [6, 23] Yurtdagi notinchlik, siyosiy vaziyatning beqarorligi, ichki nizolar va boshboshdoqlik hukmdorni xavotirga solishi, bu holatda qanday murosa yo‘lini tanlashi birgina shu jumladan ma‘lum qilingan. Adib podshohning ichki holatini, uning ko‘nglidan kechayotgan his-tuyg‘ularni tobora kuchayib borayotganligi adib mahorati bilan g‘oyat ta’sirchan tasvirlab bergan. O‘zbek paralingvistik vositalarining ko‘pchiligi kishilarning salbiy hislatlarini aks ettirishi bilan xarakterlidir. Bu, ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari nutqida yaqqol ko‘rinadi. Ulardagi qaysarlik, o‘jarlik, harakatsizlik, sergaplik, maqtanchoqlik, manmanlik kabi salbiy hislatlar nutq jarayonida turli nolisoniy vositalar orqali yuzaga chiqadi va so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalab, yanada kuchliroq baho ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“ Og‘ir musibat ustiga qo‘shilgan bu shum xabarlar Boburni juda esankiratib qo‘ydi. O‘zi kuni bilan ro‘za tutib, darmoni ketib borar, nihayatda qattiq charchaganligidan tili tanglayiga yopishib qolgandek tuyilar edi. Uning tashna ko‘zlari qo‘rg‘on devori tagidagi xandaqqa to‘ldirilgan qoramtir suvga tushdi. Turib qolgan shu qora suv ham unga allanechuk jozibali ko‘rindi. U quruqlashgan lablarini namsiz tili bilan yalab qo‘ydi. [6, 41] Yuqoridagi matnda esa noverbal vositalarning qo‘shaloq holda qo‘llanilishi berilgan. Bu esa nutqiy vaziyatning yanada yorqinroq ochib berilishiga xizmat qilgan. Erkaklarga xos bo‘lgan og‘ir bosiqlik, o‘ychanlik, chuqur xo‘rsinish ularga xos bo‘lgan xulq-atvorning isbotidir. Bu holat Boburning his-tuyg‘ularini, uning ichki kechinmalarini ifodalab bergan. Til tanglayga yopishishi, ko‘z harakatlari ifodalanayotgan verbal nutq jarayonida ma‘noni yanada kuchaytirib ifodalash uchun, aynan, ana shu noverbal vosita qo‘llangan.

Jamiyatda erkak va ayollar teng huquqliligining ta‘minlanishi, ayollarning turmush sharoiti, yashash tarzi, ish faoliyati, kundalik muloqotiga va noverbal xatti-harakatlariga ham sezilarli darajada ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Bu holat hozirgi zamonaviy jamiyatda, nutqiy muloqot jarayonida, ularning noverbal vositalardan foydalanishlarida ham bir xilliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, paralingvistika – noverbal birliklar, ya’ni ohang, imo-ishora, mimika, tana harakatlarining xususiyatlarini o‘rganuvchi sohadir. Uni o‘rganishdan asosiy maqsad, nutq egasining maqsadini yanada yorqinroq ochib berish, nutqni tejash, bo‘yoqdorligini oshirish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan. Gender tadqiqotlar lisoniy faoliyat subyektini biologik maqomga ega bo‘lgan shaxs sifatida ta’riflash maqsadini nazarda tutib, u sotsiolingvistikaning bir qismidir. Biroq mazkur yo‘nalishning o‘z obyekti va predmeti mavjudligini inobatga olish lozim. Gender atamasi har qanday jamiyatda erkak va ayol jinsiga xos bo‘lgan shaxsga nisbatan anglashiladigan xatti-harakatlar va nuqtayi nazarlar birligidir. Gender yo‘nalish markazida inson va uning nutqini tadqiq etish muhim sanaladi. Xuddi shu o‘rinda, Pirimqul Qodirov asarlari, ularning haqqoniyligi, sodda tili, bo‘yoqdorligi, paralingvistik vositalarga, milliy mentalitetga boy noverbal vositalarga uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu nolisoniy birliklar zahirida asar qahramonlarining ruhiy va jismoniy holatlari yanada ochiq tasvirlab berilgan. O‘zbek tilida baho lingvistik vositalar bilan birga, balki paralingvistik vositalar bilan yordamida aks etishi adib asarlarida yaqqol

isbotini topgan. E’tibor qaratish kerakki, bir millatga xos ayol va erkak nutqi boshqa millatda o‘zgachalik kasb etishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida faqatgina ayollarga xos so‘zlashuvning gender xususiyatlari ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo‘lishi mumkin. Bu esa qiyosiy genderologiyaga yo‘l ochishi va shunga mos tadqiqotlarniyuzaga keltirishi mumkin.Paralingvistik vositalar milliy xususiyatlarni o‘zida gavdalantiradi, urf-odatlar, odob xatti-harakatlari bilan aloqador bo‘ladi va muloqotning ajralmas uzvi sifatida nutqiy muloqotda bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.B.R.Ahmedov. Nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o‘rni. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal,N 5/2019. -77 b.
- 2.B.R.Ahmedov. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi. Andijon-2021.-14 b.
- 3.T. H. Asadov. Matn tilshunosligi. Buxoro – 2023. -120-123 b.
- 4.X.I.Islomjonova. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga oid lingvopragmatik tahlil. “21-asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. N4, 2018-yil. -3b.
- 5.Barotova M.O. O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi. Buxoro-2023. -11 b.
- 6.Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Toshkent. “Adabiyot uchqunlari” – 2018.